

MAKTABDAN TASHQARI TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING KOMPETENSIYAVIY MODEL

КОМПЕТЕНТНОСТНАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИО- НАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ УЧАЩИХСЯ В ПРОЦЕССЕ ВНЕШ- КОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

A COMPETENCE-BASED MODEL FOR DEVELOPING STUDENTS' VOCATIONAL PREPARATION IN THE PROCESS OF EXTRACURRICULAR EDUCATION

PARDABAYEV JASUR ESHBEKOVICH

Yangi asr universiteti "Maxsus pedagogika" kafedrasi mudiri (PhD) dotsent

Annotatsiya. Maqola maktabdan tashqari ta'lim jarayonida o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyaviy modelni o'rganishga bag'ishlangan. Ishda innovatsion va raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning professional ko'nikma va kompetensiyalarini shakllantirishning samarali usullari tahlil qilinadi. Taklif etilgan model o'quvchilarning individual qobiliyatlari, ijodiy salohiyati va kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: maktabdan tashqari ta'lim, kasbiy tayyorgarlik, kompetensiya modeli, innovatsion texnologiyalar, raqamli ta'lim, professional kompetensiyalar.

Abstract. This article is devoted to the study of a competency-based model aimed at developing students' professional training within the process of extracurricular education. The study analyzes effective methods for forming students' professional skills and competencies through the use of innovative and digital technologies. The proposed model contributes to the development of students' individual abilities, creative potential, and professional motivation.

Keywords: extracurricular education, professional training, competency-based model, innovative technologies, digital education, professional competencies.

Аннотация. Данная статья посвящена изучению компетентностной модели развития профессиональной подготовки учащихся в процессе внешкольного образования. В работе анализируются эффективные методы формирования профессиональных навыков и компетенций учащихся посредством применения инновационных и цифровых технологий. Предложенная модель направлена на развитие индивидуальных способностей, творческого потенциала и профессиональной мотивации обучающихся.

Ключевые слова: внешкольное образование, профессиональная подготовка, компетентностная модель, инновационные технологии, цифровое образование, профессиональные компетенции.

Kirish. Zamonaviy jamiyat ta'lim tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan,

raqobatbardosh, tashabbuskor, ma'naviy va jismoniy sog'lom shaxslarni tarbiyalab

berish talabini qo'yimoqda. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada

rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta'lim muassasalarida kompetentli "ilmiy pedagogik kadrlar zahirasi yaratish" vazifasi belgilandi. Maktabdan tashqari ta'lim tizimi o'quvchilarning umumiy va kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar va interaktiv platformalar ta'lim jarayoniga integratsiya qilinishi bilan o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari sezilarli darajada oshdi. O'quvchilarning kasbiy tayyorgarligi nafaqat ma'lumotga ega bo'lishini, balki amaliy ko'nikmalar, ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini ham o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, kompetensiyaviy yondashuv maktabdan tashqari ta'lim jarayonida samarali vosita hisoblanadi.

Asosiy qism: Kasb-hunar ta'limi deyilganda o'quvchilarga asosiy kasb-hunar ta'limi dasturlarini tugatish orqali bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni egallashga, shuningdek, ma'lum darajadagi va ko'lamdagi kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim turi bo'lib, ularga ma'lum bir sohada professional faoliyat bilan shug'ullanish va ma'lum bir kasb yoki mutaxassislik bo'yicha ish bajarish imkonini beradi.


Kasbiy kompetensiya ma'lum kasbiy ko'nikmalarni, hamda ko'nikmalarni kasbiy faoliyat yuritish jarayonida va har bir kasb egasining, jumladan o'qituvchining shaxsiy fazilatlarini mazkur faoliyat jarayonida samarali qo'llay olish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda matematik masalalardan foydalanib o'quvchining mutaxassisligi bilan bog'liq bo'lgan aniq vaziyatlarni

modellastiriladi, bunda o'quvchilarning ma'lum matematik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yashirin xususiyatlarni topish kerak. Bunday masalalarni yechish o'quvchilarning matematika faniga bo'lgan qiziqishini oshirishga va shu bilan birga uni amaliyotda qo'llashga yordam beradi.

2003- yildan boshlab ta'lim sifati muammosini o'rganish (umumiy, kasb-hunar) sharoitida "kompetensiya" atamasi tobora ko'proq qo'llanilmoqda. Shunday qilib, 2003-yildan 2006-yilgacha bo'lgan davrda zamonaviy o'zbek olimlari o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi kontseptsiyasini sezilarli darajada boyitib, kundalik hayotga "kompetensiya"dan ko'plab hosilalarni: "kompetensiya yondashuvi", "kompetensiya paradigmasi", "vakolat modeli", "asosiy vakolatlar" ni kiritdilar.

Demak, kasbiy kompetentlikning muhim qismi kasbiy bilim va ko'nikmadir. Bu, avvalo, iqtisodiy, falsafiy, psixologik-pedagogik, ijtimoiy, maxsus va qo'shimcha bilimlardir. O'zbekistonda kadrlar tayyorlash jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni bosh maqsad qilib qo'ygan. Demak, Milliy dastur ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat buyurtmasi hisoblanib milliy mafkuraning tarkibiy qismini tashkil etadi. Faqat ijtimoiy (davlat) buyurtmasigina belgilab beradi yoki oliy (o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar) ta'lim uchun pedagogik tizimining mavjudlik shartlarini kafolatlaydi.

Kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishning kompetensiyaviy modeli o'quvchilarning professional kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan kompleks tizim bo'lib, u bir nechta tarkibiy komponentlardan iborat. Taklif etilgan kompetensiyaviy model quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:



Jadvaldagi komponentlarning izohiga keladigan bo'lsak quyidagicha ta'riflanadi: bilim komponenti – kasbiy soha bilan bog'liq nazariy bilimlarni o'zlashtirish; ko'nikma komponenti – amaliy ishlar, laboratoriya mashg'ulotlari va simulyatsiya mashqlar orqali ko'nikmalarni rivojlantirish; shaxsiy va ijodiy komponent – muammolarni hal qilish, ijodiy yondashuv va mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirish; motivatsion komponent – o'quvchilarda kasbiy faoliyatga qiziqish va intilishlarni rivojlantirish.

Modelning asosiy prinsiplari: individual yondashuv, interaktivlik, integratsiya va innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish. Kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishning kompetensiyaviy modeli o'quvchilarning professional kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan kompleks tizim bo'lib, u bir nechta tarkibiy komponentlardan iborat. Birinchidan, bilim komponenti o'quvchilarning kasbiy soha bo'yicha nazariy bilimlarini egallashini ta'minlaydi. Bu komponentda o'quvchilar mutaxassislikka oid asosiy tushunchalar, qonun-qoidalar, texnologiyalar va printsiplarni o'rganadilar. Bilim komponenti kasbiy tayyorgarlikning nazariy asosini shakllantiradi va o'quvchilarning kasbiy bilim bazasini mustahkamlaydi.

Ikkinchidan, ko'nikma komponenti amaliy ishlar va laboratoriya mashg'ulotlari orqali o'quvchilarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu yerda virtual laboratoriyalar, interaktiv mashg'ulotlar va simulyatsiya mashqlari orqali o'quvchilar real ish jarayoniga yaqin tajriba oltiradilar. Shuningdek, loyiha ishlari, maslahatlar va muammolarni hal qilish faoliyati o'quvchilarning amaliy kompetensiyasini oshiradi. Uchinchidan, shaxsiy va ijodiy komponent o'quvchilarda ijodiy fikrlash, muammolarni mustaqil haletish va innovatsion yondashuv qobiliyatlarini shakllantiradi. Bu komponent o'quvchilarning tashabbuskorligi, qaror qabul qilish qobiliyati va individual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. To'rtinchidan, motivatsion komponent o'quvchilarda kasbiy faoliyatga qiziqish va kasbga bo'lgan intilishlarni kuchaytiradi. Bu komponent o'quvchilarga o'z maqsadlarini belgilash, muvaffaqiyatga intilish va professional o'sishga motivatsiyani oshirish imkonini beradi. Beshinchidan, innovatsion va raqamli komponent, ya'ni integratsiya elementi, ta'lim jarayoniga interaktiv platformalar, e-learning vositalari va virtual laboratoriyalarni kiritish orqali modelning samaradorligini oshiradi. Bu komponent o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini zamonaviylashtiradi,

teskari aloqani tezlashtiradi va individual yo'naltirish imkonini yaratadi.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyati orqali o'quvchilarda kasbiy

yo'nalganlikni shakllantirish, amaliy faoliyat tajribasini rivojlantirish hamda zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kasbiy kompetensiyalarni tarkib toptirish.

Modelning tarkibiy komponentlari



Maqsadli komponent-ta'lim yoki tarbiya jarayonida erishilishi lozim bo'lgan natijalar, shaxsda shakllantirilishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni aniqlovchi element hisoblanadi.

Mazmunli komponent-ta'lim jarayonida o'quvchilarga yoki talabalarga beriladigan ilmiy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, malakalar, qadriyatlar va kompetensiyalar tizimini o'z ichiga oladi.

Jarayonli (texnologik) komponent-pedagogik model yoki ta'lim tizimining tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim maqsadi va mazmunini amaliy faoliyat orqali amalga oshirish mexanizmini ifodalaydi.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari o'quvchilarning qiziqishlari, ehtiyojlari hamda individual qobiliyatlarini rivojlantirish orqali ularni kelajak kasbiy faoliyatiga yo'naltirishda samarali ta'lim muhitini yaratadi. Shu bois maktabdan tashqari ta'lim jarayonida o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim jarayonini faqat nazariy bilim berish bilan

cheklab qolmasdan, balki o'quvchilarning real hayotiy va kasbiy vaziyatlarda faoliyat yurita olish qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi. Mazkur yondashuv asosida ishlab chiqilgan kompetensiyaviy model o'quvchilarda kasbiy bilim, amaliy ko'nikma, mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni hal etish hamda ijodiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Maktabdan tashqari ta'lim jarayonida o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilgan pedagogik model o'quvchilarning kasb tanlashga ongli munosabatini shakllantirish, ularning amaliy faoliyatga tayyorgarligini oshirish hamda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va ijtimoiy faolligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Taklif etilgan kompetensiyaviy modelning maqsadli, mazmunli, jarayonli (texnologik) va natijaviy komponentlari o'zaro uzviy bog'liqlikda faoliyat yuritib, o'quvchilarda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni tizimli ravishda shakllantirish imkonini beradi. Maktabdan tashqari ta'lim mashg'ulotlarida interfaol metodlar, loyiha faoliyati, amaliy topshiriqlar hamda

innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish samaradorligini oshiradi. Shuningdek, mazkur model o'quvchilarning individual qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash, ularni kelajak kasbiy faoliyatiga yo'naltirish hamda

mehnat bozoriga mos raqobatbardosh shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada maktabdan tashqari ta'lim tizimi o'quvchilarning kasbiy o'zini anglash va o'zini rivojlantirishining muhim pedagogik muhitiga aylanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar :



1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. – Toshkent, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Maktabdan tashqari ta'lim tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorlar to'plami. – Toshkent, 2021.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
4. Babanskiy Yu.K. Pedagogika. – Moskva: Prosveshcheniye, 1988.
5. Pidkasistiy P.I. Pedagogika. – Moskva: Pedagogicheskoe obshchestvo Rossii, 2002.
6. Krayevskiy V.V. Metodologiya pedagogiki. – Moskva: Akademiya, 2001.
7. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. – Moskva: Znaniye, 1996.
8. Leontyev A.N. Faoliyat. Ong. Shaxs. – Moskva: Politizdat, 1975.
9. Zimnyaya I.A. Klyuchevye kompetensii kak rezultat obrazovaniya. – Moskva: Issledovatel'skiy tsentr problem kachestva podgotovki spetsialistov, 2004.
10. Khutorskoy A.V. Kompetentnostnyy podxod v obrazovanii. – Moskva: Eydos, 2003.
11. Shadrikov V.D. Kachestvo obrazovaniya i kompetentnostnyy podxod. – Moskva, 2005.
12. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: Fan, 2010.
13. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008.
14. Muslimov N.A. Kasb ta'limi metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
15. Nishonaliyev U.N. Kasb-hunar pedagogikasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2007.